

KOREYS TILSHUNOSLIGIDA TAQLID SO'ZLAR SEMANTIKASI

Sherov Rasul Ravshanovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys tili nazariyasi va amaliyoti

kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolaning asosiy g'oyasi koreys tilshunoslidining nozik jihatlaridan biri, ya'ni taqlid so'zlar, ularning turlari va farqlarini til va madaniyat uyg'unligini aks ettirgan holda tadqiq qilishdan iborat. Bunda taqlid so'zlar madaniy tilshunoslik nazariyasi asosida inson qadriyati va xarakteri masalalarini o'rganish va tahlil qilish orqali qiyoslanadi. Maqolada koreys tilidagi taqlid so'zlarning turli shakllari misollar orqali keng tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: *taqlid so'zlar, tasviriylifoda, lingvomadaniyat, madaniyat, ierarxiya.*

Zamonaviy koreys tilida taqlid so'zlar tasviriylifodalar safida o'rganiladi. Taqlid so'zlardan muloqot jarayonida nihoyatda keng foydalanilsa ham, bugunga qadar koreys tilshunoslida ushbu yo'nalish tadqiqot mavzusi sifatida atroficha o'rganib chiqilmagan. Ayrim tilshunoslar tomonidan bu masala xususida bildirilgan ma'lumotlar juda qisqa bo'lganligi bois, taqlid so'zlar bo'yicha maxsus manba yetarlicha shakllanmagan, bu so'zlar turkumi bo'yicha ijtimoiy tadqiqotlar olib borilmagan. Biroq, bu so'zlarning ayrim xususiyatlari allaqachon o'zbek, rus va boshqa millat vakillarining ilgari nashr etilgan asarlarida tilga olingan.

G.I. Ramstedt fikriga ko'ra⁴⁰ koreys tilida taqlid so'zlar ikki semantik guruh: onomatopoeik va obrazli so'zlarga bo'linadi. Onomatopoeik va obrazli(majoziy) so'zlar o'zaro murakkab shakllanishi bilan xarakterlanadi. Murakkab obrazli so'zlar tuzilishi jihatidan ushbu turdag'i so'zlarning maxsus morfologik rivojlanishini aks ettiruvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega. So'zlarning bu kabi strukturaviy o'ziga xosligi ularni maxsus leksik kategoriyaga ajratish uchun yaxshi sabab bo'ladi.

Obrazli (majoziy) so'zlar va gap bo'laklari o'rtaqidagi munosabat masalasida koreys tilshunoslarida turlichalar mavjud.

Obrazli so'zlar tarkibi masalasida aksariyat mualliflar o'z bayonotlarida qisman to'xtalib o'tishgan. Ba'zilar taqlid so'zlarni ravishlar safiga kiritsalar⁴¹, boshqalar ularni so'zlarning maxsus toifasi⁴² va shunga o'xshash manba deb hisoblashadi⁴³. Ularni ergash gaplar turkumidan chiqarib tashlab, jonli mavjudotlar onomatopeyasi guruhidagi kesimlarga kiradi. Biroq, bu qarash butunlay to'g'ri emas, chunki, obrazli so'zlar so'zlar

⁴⁰ Рамстедт Г.И. «Грамматика корейского языка» М.,1951г-С 207

⁴¹ Холодович А.А. «Очерк грамматики корейского языка» М., 1954 – С 190

⁴² Рамстедт Г.И. «Грамматика корейского языка»., М 1954-С 206

⁴³ Малый словарь корейского языка», АН КНДР,1955

turkumi bo'lib, bu tuyg'ularni nomlamasdan, tuyg'u va munosabatni eng qisqa va samarali ifodalash uchun xizmat qiladi. Taqlid so'zlar esa garchi ularda juda ko'p stilistik iboralar mavjud bo'lsa ham, o'ziga xos his-tuyg'u, iroda ifodalari va boshqalarni ifodalamaydi. Ushbu maqolada tasviriy so'zlar ravishlarning bir qismi sifatida o'rganiladi, chunki tasviriy so'zlar bilan ravishlar orasidagi funksional va grammatik farqlar ularni mustaqil gap bo'lagi sifatida ajratib ko'rsatish uchun yetarli emas.

Onomatopoeik so'zlar tovush yoki holatga taqlid qiluvchi so'zlardir.

Bunga hayvonlar, narsalar, tabiat hodisalari tovushlari va boshqalar kiradi.

Masalan: **멍멍** (vov-vov), **땡땡** (g'ichir-g'ichir), **탕탕** (kas-kas).

Harakatning tasvirini, tovushini va turini bildiruvchi tovushga o'xshash ifodalar ham mavjud. Biroq, koreys tilida tasvir va tovush birikmasini bir so'zda qo'llanilishi kamdan-kam holatda uchraydi.

아장아장(asta-sekin emaklamoq), **영금영금** (asta-sekin emaklamoq), **번쩍번쩍** (porlamoq), **대굴대굴** (aylanmoq), **방긋방긋** (nim tabassum).

Tasviriy so'zlar ham ba'zan onomatopoeikaga aylanishi mumkin, chunki, onomatopeya o'zida shartli xarakterni ifodalaydi.

Onomatopoeik so'zlar ko'proq yoki kamroq aniq bo'lganligi sababli, ko'pincha ma'lum jonzotlar yoki jonsiz narsalar tomonidan yaratilgan tovushlar yoki tovushlarga juda yaqin taqlid bo'lganligi sababli, taqlid qilingan tovushlarning tabiatiga ko'ra, koreys tilida onomatopoeia:

1) qushlarning ovozi va sayrashiga taqlid qilingan so'zlar:

비둘기	구구,	kabutar
부엉이	부엉부엉,	boyo'g'li
참새-	짹짹	, chittak
병아리 -	뻐약뻐약,	jo'ja
수탉	꼬끼오,	tovuq
까마귀	까악까악,	olashaqshaq
뻐꾸기	뻐꾹뻐꾹,	kakku
휘파람새	비베쭝,	xo'roz
끼치	깍깍,	qarg'a
솔개	빙빙,	kurka
오리 –	꽥꽥,	o'rdak

2) hayvon qichqirig'i va boshqa tovushlari:

강아지	멍멍,	kuchuk	bolasi
개	왕왕,		it
돼지	꿀꿀,		cho'chqa
말	하하힝,		ot

말이	뛰어가다(따그닥따그닥),	otning	chopishi
염소	매해에 (매에)		echki
고양이	야옹야옹		mushuk
소	음매		sigir
개구리	개굴개굴		qurbaqa
쥐	찍찍		sichqon
호랑이	어흥 으르렁		yo'lbars
코끼리	크앙크앙		fil
양		매-애-애	qo'y
당나귀	컹컹		eshak
뱀소리	히이스		ilon shivirlashi

3) mexanizmlar tomonidan yaratilgan tovushlar:

자동차	붕붕	mashina ovozi
오토바이	부르릉부르릉,	motosikl ovozi
여객선은	(배)-부응	paraxod ovozi
자전거	따르릉따르릉	velosiped
비행기	위잉위잉	samalyot
헬리콥터	또르또르르	vertalyot
기차	칙칙폭폭,	poyezd
종	땡땡	qo'ng'iroq
문	꽝	eshik taqqillashi
문	드르륵	eshik g'ichirlashi

벨이 울리는 소리 - 찌르릉,	(eshik qo'ng'irog'ining jiringlashi)
자동차 연해 울리는 소리 - 빵빵,	(quritilgan paxmoqni o'raydigan mashina)
총이나 포를 쏘는 소리 - 평,	(to'p-paxmoq-bom-bom, bum, bom)
자동차 경적 소리 - 빵빵,	(mashina signali)
삐삐- (пи-пи),	(peyjer-bip-bip-bip)
구급차 - 삐뽀삐뽀,	(tez yordam mashinasi-viu-viu)
전화 벨이 울리는 소리 - 따르릉,	(telefon jiringlashi)
시계 - 똑딱똑딱,	(soatning chiqqillashi)

4) odamlar tomonidan yaratilgan tovushlarning assemantik komplekslari:

자는 소리 - 쿨쿨,	(uxlab yotgan odam ovozi)
이빨 가는 소리 - 뿌드득 뿌드득,	(tishlarni g'ijirlatish)
콧물 - 흥,	(burun oqishi)
코고는 - 드르렁드르렁,	(xir-xir-xirrillaganda)
기침 - 콜록콜록,	(yo'tal)

재채기 - 예취,	(aksirish)
꼬르륵 - 뱃속이 끓어 오르는 소리,	(qorin g'uldurashi)
심장 - 두근두근 (팔딱팔딱),	(yurak urishi)
소리를 내는 장치,	(qarsak ovozi)
뽀뽀할때 (키스할때) - 뾰뽀,	(o'pish)
설거지나 빨래를 할때 - 쑥쑥싹싹, (kir yuvilayotganda chiqadigan ovoz)	
배가 고풀때 - 꼬르륵,	(qarin ochgandagi ovoz)
우리 아기는 - 아장아장,	(bolaning ilk qadam tashlashi)
박수 칠때 - 짹짜,	(qarsak chalish)
밥 먹을 때 - 쪽쪽 (짭짭),	(ovqat yeganda chiqadigan ovoz)
뚜벅뚜벅 - 계단을 올라가는 소리,	(odam qadami ovozi)
5) ovozli eskiz sifatida taqdim etilgan inson nutqi:	
목놓아 우는 소리 - 엉엉,	(bolaning yig'isi)
아이가 맛있게 음식을 먹으며 내는 소리 - 담담	(nyam-nyam-mazali)
아야야야 (아파),	(og'riq)
끙끙,	(og'riqdagi qichqiriq)
지지,	(isqirt)
무무,	(suv)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Henry George Liddell. Robert Scott. A Greek-English Lexicon. Oxford. Clarendon Press. 1940.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. ВОЛОВИК А.А. ПРОБЛЕМЫ И СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА ЗВУКО- И ОБРАЗОПОДРАЖАТЕЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ С КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА НА РУСССКИЙ ЯЗЫК, ФБГОУ ВО «Иркутский государственный университет», Иркутск, Россия, 2018.